

OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TA'RBIYASIGA TA'SIRI ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Eshmuradov Olmosbek Elamanovich

Termiz davlat pedagogika instituti "Psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Ismoilova Gulmira Erkin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6902544>

Annotatsiya. Maqolada bolalar tarbiyasi masalasida qaynona kelin o'rtasidagi munosabatlarning ta'siri to'g'risida va o'z navbatida iloji boricha ota-onalarini tushunishga intilishlari lozim, ularning g'ashiga tegadigan noo'rin qiliq va odatlardan tiyilishlari kerak. Yoshlarga muomilani o'rgatish, qobiliyat, aql, ishonch va sog'liq bilan ta'minlashga qaratilgan. Ularning avlodlaridan meros bo'lib qolgan o'zbek oilasining urf-odatlarini, yosh avlodning urf-odatlarini va qadriyatlarini jamiyatda katta xurmatga sazovar bo'ladi.

Kalit so'zlar: bolalar tarbiyasi masalasida, «bolaga kim tarbiya berishi kerak?», madaniy-ijtimoiy omilning ahamiyati, ruhiy jihatdan ta'sir doira, xolerik mizojga mansub bo'lganlar sharoitiga tez moslashadilar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация. Обучая молодежь, судьба направлена на то, чтобы обеспечить сырийцев способностями, интеллектом, верой и здоровьем. Традиции и обычаи узбекской семьи, унаследованные от их потомков, традиции и обычаи молодого поколения широко уважаются в обществе.

Ключевая слова: брачно-семейные отношения, семейная этика, любовь, семейное счастье, окрпана брака и семейного отношения, подготовка к семейной жизни.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE UPBRINGING OF CHILDREN IN FAMILY RELATIONSHIPS

Abstract. Young people should follow their pearents', should try to understand their parents as much as possible, to refrain from inappropriate behaviors and habits that offend them. It is aimed at teaching young people how to behave, provide skills, intelligence, confidence and health. The traditions of the Uzbek family, the traditions and values of the younger generation, inherited from their descendants, will be highly respected in society.

Keywords: issues of bringing up children, "who should bring up the child?", the importance of the socio-cultural factor, the sphere of psychological influence, those who belong to a choleric client adapt quickly to the situatio

KIRISH

O'zbek oilasi muammolariga faqat ijtimoiy institutlarning funksiyasi sifatida emas, balki oilaga ta'lim-tarbiya o'chog'i sifatida ham qarash lozim. Jamiyatda oilaning barqarorlashuv muammolariga bog'liq bo'lgan ijtimoiy-psixologik masalalarni hal qiluvchi, uning mustahkamlashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassis sifatida ijtimoiy psixologiyaning tarmog'i hisoblangan oila psixologiyasi ta'limiga bo'lgan talab paydo bo'lishi bugungi tarbiyaga ham ta'sir etadi. Zotan ta'lim bilan qamrab olinmagan aholi qatlamiga ijtimoiy-psixologik jihatdan ta'lim berishning samarali usullari tizimini yaratish va oila mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik

asoslarini o'rganish jarayoni, oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillarining amaliy asoslari, oila barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan psixologik maslahatlar ishlab chiqish bevosita bolalar tarbiyasi da qaynona kelin o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy psixologik omillariga borib taqaladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Mustaqillik yillarida aholi sonining muttasil o'sib borishi hisobiga yosh oilalar soni ham oshdi. Shuning uchun bugungi kunimiz va ertangi istiqbolimiz uchun eng muhim va dolzarb masala - oilaga e'tiborni kuchaytirish, uni ijtimoiy-psixologik himoyalash va qo'llab-quvvatlash lozim. Demak, oila instituti jamiyat hayotiy faoliyatida ulkan ahamiyatga ega ekan, ijtimoiy psixologiya, amaliy psixologiya, oila psixologiyasi doirasida uning rivojlanish qonunlarini, barqarorligi va mustahkamligi omillarini aniqlash, aniqlangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish, oilaning har bir a'zosi uchun psixologik xizmatdan foydalanish imkonini yaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. SHu bois oila va nikohning mustahkamligini saqlash, buning uchun psixologik bilimlarga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

Oilaga yangi tushgan kelinlarning ko'pchiligi yuzaga keladigan ba'zi qiyinchiliklarni osonlik bilan engib, kelinlik vazifalarini ko'ngildagiday eplab ketadilar, qaynonalarini ro'zg'or tashvishlaridan xalos qiladilar, tezda ularning mehriga sazovor bo'ladilar. Qaynonalar ham bunday kelinni «qizim» deb bag'rilariga oladilar, bilmaganini o'rgatadilar, qiynalganida yordam beradilar, hayotiy yo'l-yo'riq ko'rsatadilar[1]. Ularga uy-ro'zg'or ishlarida va bolalar tarbiyasida yaqin ko'makdoshga aylanadilar. Biroq hayotda qaynona-kelin orasida turli to'qnashuvlar ham sodir bo'lib turadi. Gap qaynona-kelin o'rtasida borar ekan, shuni aytib o'tishimiz lozimki, bu masala azal-azaldan odamlarning, insoniyat atoqli namoyandalarining diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan muammolardan biridir.

TADQIQOT NATIJALARI

Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan sharq mutafakkirlaridan biri Axmad Donish o'zining «Navodir ul- vaqoe» (Nodir voqealar) nomli kitobida qaynona kelin-nizolari haqida yozar ekan shunday deydi: «Qaynona-kelin nizolari bundan oldingi oilalarda ham bo'lgan, hozir ham bor va bundan keyin ham bo'ladi. Ular doimo urishaveradilar. Ular nima uchun urishadilar? CHunki ular nima uchun urishishayotganliklarini o'zlari ham bilishmaydi. SHuning uchun urishadilar»[3]. Demak, bu o'rinda qaynona-kelin nizolari, sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish alohida ahamiyatga molik masala ekanligi ko'rinib turibdi. Bunday kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Ba'zi qizlarda nikohgacha oilaviy hayotga, qaynonaga, qaynona-kelin munosabatlariga nisbatan salbiy tasavvur shakllangan bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar qaynonani oldindan faqat salbiy shaxs sifatida tasavvur qiladilar. Keyin esa oila ko'rib, tasavvuridagi emas, balki hayotdagi qaynona bilan yashay boshlaydilar. Oqibatda ular o'z tasavvuridagi qaynonaga xos bo'lgan kamchilik va illatlarni hayotdagi qaynonadan axtara boshlaydilar. Borini-ku, topishlari aniq, yo'q kamchiliklarni ham izlashga tushadilar. CHunki tasavvurlari ularni aldaganini tan olishni istamaydilar.

Hayotda kamchiliksiz odam bo'lgan emas, bo'lmaydi ham. Ideal qaynona, ideal kelin ham bo'lishi mumkin emas. Kelinlar o'zlari tushgan yangi oila a'zolariga ilk taassurot asosida baho berishga oshiqmasliklari lozim. Aks holda, pashshadan fil yasash ham hech gap emas. Kelinlar og'ir-bosiq, sabr-toqatli bo'lishlari, iloji boricha o'zlari tushgan xonadon a'zolarining

yaxshi tomonlarini qo'rishga intilishlari, eri shu xonadon a'zosi ekanligini unutmasliklari zarur. Ana shunda bu oila tinch-totuv bo'ladi. Zotan, kelin bu xonadonga besh kunlik mehmon emas, balki bir umrlik a'zo bo'lib kelganligini esdan chiqarmasligi kerak.

2. Qaynona-kelinning dunyoqarashlari va uy-ro'zg'or tutishlari orasida kelishmovchilik paydo bo'ladi va keskinlashadi. Ikki avlodning dunyoqarashi, hayotiy tamoyillari o'rtasida tafovut bo'lish tabiiy hol. Ammo aksariyat hollarda qaynona-kelinlar ko'p jihatdan bir-birining aksi bo'ladilar. Ayrim paytlarda esa qaynona-kelin andishani yig'ishtirib qo'yib, har birlari o'z gaplarini o'tkazishga harakat qiladilar. Bunday kelishmovchiliklarning oldini olish uchun kattalar yoshlarning kiyinishi, soch turmaklashi, yoqtirgan kuy va qo'shiqlarini tinglashi va shu kabi boshqa masalalarda ularni o'z holiga qo'yishlari lozim. Yoshlar ham o'z navbatida iloji boricha ota-onalarini tushunishga intilishlari, ularning g'ashiga tegadigan noo'rin qiliq va odatlardan tiyilishlari kerak.

3. Ba'zi kelinlar kelinlik va onalik vazifalarini bajarishga tayyor bo'lmaydilar. SHunday kelinlar bo'ladiki, ular na ovqatqilish, na kiriyuvish, na kattalar bilan muomala qilishni biladilar.

MUHOKAMA

Kelin kelinligining birinchi kunidanoq hamma narsani kerakligicha bilishi va katta tajribaga egabo'lgan qaynonasi darajasida turishi juda qiyin. U yoshi ulug'lar darajasida bilmasa ham mayli-ya, lekin bilishni istamasa qiyin. SHuninguchunni kohgacha onalar qizlariga osh-ovqat pishirishni, uy-joyini saranjom-sarishta tutishni, did bilan mehmon kutishni, tejamkorlikni, oila byudjetini iqtisod qilishni, uyanjomlari, jihozlaridan asrab-avaylab foydalanishni va shu kabi uy-ro'zg'or ishlarini o'rgatishga alohida e'tibor berishlari zarur. CHunki el orasida «qiz birovning xasmi, boshqa oilaga tushishi bor», degan hikmat bor. SHuni doimo esdatutib, qizlarniro'zg'ortutishda puxta tayyorlash kerak.

Qaynonalar ham kelinlardan har-xil kamchilik va qusur axtarmasdan, uni o'z farzandiday ko'rib, bilmaganini sabr-toqat bilan o'rgatib borishi lozim. Kamchiliklarini yuziga solavermasdan, yaxshi tomonlarini eslab turishlari kerak. YAxshi so'z ham, yomon so'z ham bir og'izdan chiqadi. Qaynonalar kelinlarida hosil qilingan ko'nikma va malakalarning o'g'li uchun va kelajakda nabiralari uchun xizmat qilishini esda tutishlari zarur.

Ayrim hollarda qaynona-kelin bolalar tarbiyasi masalasida kelishaolmay qoladilar. Ba'zi oilalardabolalar yo bobo-buvilar yoki ota-onalar tomonidan me'yoridan ortiqcha erkalatib yuboriladi. Natijada ota-onalar bilan bobo-buvilar o'rtasida «bolaga kim tarbiya berishi kerak?», degan masalada kelishmovchilik kelib chiqadi. Aslida ular ham, bular ham bolalarning kelajakda yaxshi kishilar bo'lib etishishini istaydilar, tanlagan yo'llari esa turlicha, biroq, ular bir bitimga kelib olishmasa, bola tarbiyasining holiga voy bo'ladi. Buning uchun ular boladan xoli joyda bir murosaga, yakdil qarorga kelib olishlari lozim. Anashunda bobo-buvilar ham, ota-onalar ham ahillik bilan bola tarbiyasi borasida o'zaro mos chora-tadbirlarni belgilab olishlari lozim. Bunda bola qanday muhit va shart-sharoitda, davrda o'sayotganini, mijozi turini hisobga olish zarur.

Ba'zan katta xonadonda ovsinlar, qaynona iltifotini qozonish yo'lida, uni bir-birlaridan rashk qilishlari asosida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Oilada ikki va undan ortiq, kelin bo'lsa, qaynona ularning hammasiga bir xilda qaray olmasligi tabiiy holdir. Kelinlardan birontasi qaynonaning didiga yaqinpoq, ba'zisi uzoqroq bo'ladi. Ayollar o'ta ruhiy sezgirliklari tufayli buni tezda ilg'aydilar. Natijada «o'gay» kelin bilan qaynona o'rtasida kelishmovchilik

boshlanadi. Bunday holning oldini olish va ovsinlar orasiga sovuqchilik tushirmaslik uchun qaynonalar o'z kelinlariga mumkinqadar bir xilda munosabatda bo'lishi (ammo bu erda har bir kelinning muomalasi, munosabatini, qaynonaga bo'lgan mehrini hisobga olish inkor etilmaydi), rashk qilishlariga imkon yaratib qo'yishdan ehtiyot bo'lishlari kerak. Bu o'rinda shaxsan kelinlardan ham aql-idrok, mulohazalilik va sabr-toqat talab qilinadi.

Ba'zi paytlarda qaynona kelinning yosh xususiyatlarini, qiziqishini, orzu-havaslarini, ishlashi yoki o'qishini hisobga olmaydi.

Qaynonalar orasida umr bo'yi uybekasi bo'lganlari ham bor. Ular ishlash bilan uy-ro'zg'or ishlarini baravar olib borishni o'z boshidan o'tkazmaganlar. Ana shunday qaynonalar yoshligida o'zlarini risoladagiday kelin bo'lganman, deb biladilar. Qaynota-qaynonalarini qanday izzat qilganliklarini «ularning soylariga ko'rpacha solganlarini» (rostmi-yolg'onmi, baribir) tez-tez eslashni yaxshi ko'radilar va kelinlarining ham «o'zlariday» bo'lishini istaydilar. Ba'zan esa buni ochiqdan-ochiq talab qiladilar. Bunga kelinlarining imkoni bormi, yo'qmi, o'ylab ham ko'rmaydilar. Bunday qaynonalar «ehtiyojini» qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan kelinlar ularning g'azabiga uchraydilar. Kelini haqida bo'lar-bo'lmas gaplarni o'g'illarining qulog'iga quyadilar. «O'g'limga aytib, seni qo'ydirib yubormasam, yurgan ekanman», deyado'q-po'pisa qiladilar. Ba'zi hollarda maqsadlariga erishadilar ham. Bunday qaynonalar o'g'illari, nabiralari baxtidan ko'ra o'z huzur-xalovatlarini ko'proq o'ylaydilar. Buning oldini olish uchun o'g'ildan g'oyat zukkolik talab qilinadi.

Ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyin bo'ladi, oqibatda qaynona-kelin orasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Har bir oilaning o'ziga xos muhiti, qonun-qoidalari, an'analari, atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarga beradigan baho mezonlari, hatto faqat shu xonadon a'zolari tushunadigan, shartli ravishda qabul qilingan so'z, iboralari bo'ladi. Yangi tushgan kelin o'zi bilan o'zi tug'ilib o'sgan uyining muhitini, odat, ko'nikmalarini ham olib keladi. SHuning uchun ham ayrim hollarda kelin bilan qaynonaning oilaviy muhitlari mos kelmay qoladi. Ota-onalar iqtisodiy, moddiy, ijtimoiy saviyasi orasidagi tafovut ham aksariyat kelin-kuyov orasidagi munosabatlarning keskinlashuviga ta'sir qilishi mumkin. Bunda iqtisodiy omil shu bilan ifodalanadiki, kelin yangi tushgan xonadonda qizlik xonadonidagi iqtisodiy mo'l-ko'chilikni ko'rmasdan, o'z turmushidan sovishi mumkin.

Shuning uchun ham donolar «Qiz bersang o'zingdan bir pog'ona balandga ber, sening xonadoningda ko'rmaganini yangi xonadonida ko'rib, yangi xonadonga ko'nikishi oson kechadi. Qiz olsang o'zingdan birpog'ona pastdan ol. SHunda kelin o'z uyida ko'rmagan mo'l-ko'chilikni sening xonadoningda ko'rib, bu muhitga tez ko'nikadi», deyishgan.

Madaniy-ijtimoiy omilning ahamiyati. Kuyov ma'lumotli, madaniyatli oiladan bo'lib, kelin aksincha dehqon, ishchi yoki savdogar oiladan bo'lsa yoki er-xotindan biri shahardan, ikkinchisi qishloqdan bo'lsa, mazkur ijtimoiy-madaniy tafovut ham er-xotin o'rtasidagi ixtiloflarni keltirib chiqarishi mumkin. Kelin-kuyovlar ijtimoiy kelib chiqishida ham, iqtisodiy ta'minlanganlikda ham bir-biriga mushtarak bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Bordi-yu, kelin boshqa millatga mansub bo'lsa, uning yangi oilaga moslashishi juda qiyin bo'ladi. Masalan, o'zbek xalqida kekirish to'yganlik - shukronalik belgisi hisoblanib kelgan. Rus xalqida esa bu odat o'ta odobsizlik hisoblanadi. SHu sababli yangi oilaga moslashish ham osonlikcha kechavermaydi. Buning ustiga kelin uchun bu oila yangi, ayni paytda «begona»dek tuyuladi. Kelinning yangi oilaga moslashishi uning temperamenti turiga ham bog'liq. Masalan,

ko'proq, xolerik mizojga mansub bo'lganlar sharoitga tez moslashadilar. Biroq, engilroq, tezroq, va andishasiz kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyinroq kechadi. Yangi sharoitga oson moslashadigan hamda uni osongina o'zlashtirishga tayyor bo'lganlar sangvinik mizojdir.

Flegmatik mizoj esa vazmin, og'ir karvon bo'lgani uchun yangi oila sharoitiga sekinlik bilan moslashadi. Bir moslashib olganidan keyin esa uni o'zgartirishni sira-sira istamaydi, uncha-muncha gap-so'zga parvo qilmaydi. Melanxolik mizojlilar ham shunga yaqin. Ammo sal narsadan ularning ruhi tushib ketadi, bo'lar-bo'lmasga xafa bo'laveradi. Ruhiy jihatdan esa nihoyatda sezgir bo'lishadi^[2].

Har bir mizoj turining yuqorida berilgan qisqacha shartli tavsifini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilib olgan qaynona-kelinlarning til topib ketishlari oson ko'chadi. Ba'zi qaynonalar o'g'lini kelinidan qizg'anadi va oqibatda kelini bilan kelisholmasdan qoladi. Bunday nizolar, odatda kam farzandli yoki yolg'iz o'g'il otasiz o'sgan oilalarda ko'proq uchraydi.

Demak, bugungi kunda yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan kuchli, aqlan etuk, sog'lom va barkamol bo'lib etishishida oiladagi sog'lom munosabatlarning ahamiyati muhimdir. SHu bois, mustaqil davlatimizda oilaning mustahkam bo'lishi, uning barqarorligini ta'minlash uchun oilada sog'lom ijtimoiy munosabatlar tizimini yaratish va buning uchun avvalo otionalarni psixologik bilim bilan qurollantirish lozimdir. Bu masalani hal qilishda psixologik xizmatni, aniqroq aytadigan bo'lsak oilaviy psixologik xizmatni tashkil etish dolzarb masala sifatida ko'tariladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoev 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
2. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. o'quv-uslubiy qo'llanma.T., 2014. 185 b.
3. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. / G'.B. SHoumarov tahriri ostida / – Toshkent: "Sharq", 2008. – 296 b
4. O. E. Eshmuradov "Oilaviy muhit va oilaviy munosabatlar psixologiyaning o'rganish predmeti sifatida" "O'zMU xabarlari" Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali 2019 yil 1/6/1-soni. 162- be
5. Tilakova, M. A., and O. E. Eshmuradov. "Kreativ kobilyatlarni rivojlantirish mexanizmlari." *Scientific progress* 1.6 (2021).